



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BIZNES JARAYONLARNI BOSHQARISHNI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BAHOLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Normatova Nafisaxon Alijonovna

O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Normatova_na@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirish orqali baholash amaliyotini takomillashtirish aniqlangan kamchiliklar va muammolar yuzasidan korporativ boshqaruvning funksional sifatini baholashning mezon va ko'rsatkichlari hamda korporativ boshqaruv faoliyati samaradorligining iqtisodiy-moliyaviy va bozor faoliyatiga ta'sirini baholashning metodologik yondashuvi tavsiya etilgan.

Tayanch so'zlar: korporativ harakatlarni baholash, raqamlashtirish, raqamli ma'lumotlar, metadata, korporativ boshqaruv indeksi, direktorlar, aksiyadorlar huquqlari, korporativ boshqaruv kodeksi, bozor ulushi.

Annotation: The article recommends a methodological approach to assessing the impact of the effectiveness of corporate management on economic-financial and market activities on the criteria and indicators of the assessment of the functional quality of corporate governance on identified shortcomings and problems of improving the assessment practices of Business Process Management in joint-stock companies through digitalization.

Keywords: corporate action assessment, digitization, digital data, metadata, Corporate Governance Index, directors, shareholder rights, Corporate Governance Code, market share.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining hozirgi globallasuvi sharoitida voqelikni hisobga olgan holda yuqori marralarga erishish uchun salmoqli moddiy, moliyaviy, mehnat resurslari va ko'plab iqtisodiy-siyosiy omillar zarur. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va iqtisodiy siyosatni yaxshi bilganlar bunday asoslar mavjud va ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, deb hisoblashadi.

Mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi nafaqat respublikamizning o'zida katta qiziqish uyg'otdi, shu bilan birga davlatimiz rahbari tomonidan izchil amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligiga yana bir bor ishonch hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan xorijiy tahlilchilar uchun chuqur o'rganadigan mavzu bo'ldi. Qisqa muddatlarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan asosiy strategik vazifalar qatorida



mamlakat farovonligi va aholining turmush darajasini oshirishni ta'minlashning asosiy omillaridan hisoblangan iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish orqali yanada kuchaytirish, uning raqobatbardoshligini oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosiy o'rin egallaydi. Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes boshqaruvni takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir sanoat tarmog'idagi korporativ sektorni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun samarali zamonaviy biznes boshqaruv mexanizmlarini joriy etish lozim. Biznes boshqaruv samarasizligi biznes faoliyatini rivojlantirishning strategic vazifalari bajarilmasligining asosiy sabablaridan biridir. Shunga ko'ra, O'zbekistonda so'nggi yillarda aksiyadorlik jamiyatlarida biznes boshqaruv harakatlarni baholashga alohida ahamiyat berilmoqda[1]. Ma'lumki, korporativ boshqaruvning asosiy elementlari jamiyatlarning boshqaruv tuzilmasi, ya'ni Direktorlar kengashi yoki Kuzatuv kengashlari faoliyatidir. Korporativ boshqaruvning samaradorligi esa Direktorlar kengashining (Kuzatuv kengashining) jamiyatdagi ijroiya organlari rahbarlari bilan o'zaro munosabatlari holati, ularning tarkibi, munosabatlar va ziddiyatli vaziyatlarni yumshoq hal etish mexanizmlari, faoliyat bilan bog'liq muammoli masalalarni muhokama qilish va hal

qilish sxemalariga bog'liq¹.

2006 yilda Buyuk Britaniyadagi moliyaviy xizmatlar sanoatini tartibga soluvchi organ hisoblangan Financial Services Authority (FSA) hamda Bazel qo'mitasi tomonidan Kengashlar faoliyatini baholash bo'yicha bir qator mezonlar kiritilgan. Aksiyadorlik jamiyatini boshqarish uchun Boshqaruv kengashi va rahbariyat o'rtasida yuqori darajadagi o'zaro bog'liqlik mavjud, shuning uchun ular o'rtasida muvozanat mavjud bo'lishi kerak. Tashkilot maqsadlarini amalga oshirish va korporatsiya faoliyati samaradorligi biznes boshqaruv samaradorligiga bog'liq [2].

Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirish baholash amaliyotini takomillashtirishning asosiy yondashuvlaridan biri reyting baholash hisoblanadi. Moliyaviy bozorlarni Standard & Poor's kompaniyasi GAMMA (korporativ boshqaruv (Governance), hisobdorlik (Accountability),

boshqaruv va tahlil (Management, Metrics & Analysis)) reytingi asosida baholaydi.

ASOSIY QISM

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, bo'lajak investorlar uchun ularning ochiqligi va jozibadorligini ta'minlash, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini



joriy qilish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlar rolini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida:

1. Quyidagilar korporativ boshqaruv tizimini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va shu asosda zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, ishlab chiqarish, investitsiya, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

chet el kapitali ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish;

eski bo'linmalar va lavozimlarni tugatish, zamonaviy xalqaro standartlar va bozor iqtisodiyoti talablariga mos yangi bo'linma va lavozimlarni joriy etishni inobatga olgan holda, aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tuzilmasini tubdan qayta tashkil etish;

aksiyadorlik jamiyatlarini strategik boshqarish, boshqaruv xodimlarining samarali faoliyatini nazorat qilishni ta'minlashda aksiyadorlar, jumladan, minoritar aksiyadorlar rolini oshirish;

yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik asosida boshqaruv xodimlarini tayyorlash va ularning kasb darajasini oshirish, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida rahbarlik lavozimlariga chet ellik yuqori malakali menejerlarni jalb qilish.

2. Faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini tanqidiy o'rganish natijalariga ko'ra, 364 aksiyadorlik jamiyati nochor va tugatilishi yoki boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga aylantirilishi lozim, deb topilgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 31-martdagi PQ-2327-sonli [qarori](#) bilan tashkil etilgan Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi (R. Azimov) qayd etilgan aksiyadorlik jamiyatlarini qayta tashkil etish jarayonini 2015-yilning 1-oktabriga qadar tugatish ustidan qat'iy nazorat o'rnatsin.

3. Yetakchi xorijiy kompaniyalarda boshqaruvni tashkil etish tizimini chuqur o'rganish asosida ishlab chiqilgan aksiyadorlik jamiyatining namunaviy tashkiliy tuzilmasi [1-ilovaga](#) muvofiq ma'qullansin.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi:

O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, boshqa manfaatdor idoralar va aksiyadorlik jamiyatlarining kuzatuv kengashlari bilan hamkorlikda uch oy muddatda aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy tuzilmasini ularning tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda, namunaviy tuzilmaga muvofiqlashtirishni ta'minlasin;



davlat ulushiga ega aksiyadorlik jamiyatlarining rahbarlari tarkibini uch oy muddatda korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublari va prinsiplari, menejment va marketingni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda ularni ishlab chiqarishni boshqarish tizimida qo'llay bilishi bo'yicha attestatsiyadan o'tkazsin;

attestatsiya yakunlari bo'yicha bo'shagan lavozimlarga yangicha fikrlaydigan, zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali rahbarlar, shuningdek, xorijiy menejnlarni jalb etish choralarini ko'rsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga "Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchi kasblari klassifikatori"ga aksiyadorlik jamiyatlarining yangi namunaviy tuzilmasidan kelib chiqadigan zarur o'zgartishlar kiritish haqida takliflar taqdim etsin.

5. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining Germaniya hamda boshqa iqtisodiy rivojlangan davlatlarning yetakchi ta'lim muassasalarini jalb etgan holda, tugatiladigan Oliy biznes maktabi negizida Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazini tashkil etish, uning zimmasiga korporativ boshqaruvning tashkiliy shakllari va zamonaviy uslublarni joriy qilishni metodik ta'minlash, shuningdek, xalqaro talab va standartlarga muvofiq ushbu sohada boshqaruv xodimlarini tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish vazifasini yuklash to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.²

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazini tashkil etish to'g'risidagi qarorni belgilangan tartibda qabul qilsin va uning vazifalari, tuzilmasi, tinglovchilarni qabul qilish kvotasi, shuningdek, markazning samarali faoliyatini ta'minlash choralarini belgilasin.

6. Korporativ boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlar Mahkamasi Dasturga kiritilgan tadbirlarning belgilangan muddatlarda sifatli amalga oshirilishini tizimli asosda nazorat qilinishini ta'minlasin.

7. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Germaniya hamda boshqa rivojlangan davlatlarning muvaffaqiyatli tajribasi asosida 2015-yil 1-avgustga qadar Korporativ boshqaruv kodeksini ishlab chiqsin va tasdiqlasin, xalqaro amaliyotni inobatga olgan holda yagona hujjatda:

korporativ boshqaruvning ilg'or uslublarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar, jumladan, uzoq muddatli istiqbolda rivojlanish strategiyasi va vazifalari, ichki

² Bekmurodov A.Sh., G'afurov O`V, Tuxliyev B.K. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonning samarali iqtisodiy siyosati. O'quv qo'llanma. T.: TDIO` – 124 b



nazorat tizimlari va ijro organining aksiyadorlar hamda investorlar bilan samarali o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini belgilash³;


aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ko‘lami, tarmoq xususiyatlari va yo‘nalishlarini inobatga olgan holda, namunaviy tashkiliy tuzilmani joriy qilish;

aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ochiqligini oshirish, ular tomonidan xalqaro standartlar asosida audit va moliyaviy hisobot axborotini nashr qilish.

8. 2015-yilning 1-iyulidan aksiyadorlik va boshqa xo‘jalik jamiyatlari nomlarida ularning ustav kapitalida davlat ulushidan qat’i nazar, “davlat” so‘zidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi;

2015 — 2018-yillarda barcha aksiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va Xalqaro audit standartlari hamda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tashqi auditni o‘tkazishi ma’lumot uchun qabul qilinsin⁴.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi 2025-yilning 1-iyuliga qadar aksiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotini xalqaro standartlarga muvofiq nashr etish jadvalini tasdiqlasin.



1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirish namunaviy loyihasi⁵

³ G‘ulomov S.S. “Koxona iqtisodiyoti”. – Toshkent 2022y.

⁴ Hasanov N., Najbitdinov S. Korxonada moliyaviy holatini baholash muammolari va ularni hal qilish. –T.: 2021.

⁵ Abduraimov I.T. Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1999



**1-jadval. KORPORATIV BOSHQARUV SOHASIDA ZAMONAVIY
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH⁶**

<p>3 5.</p>	<p>Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi veb-sayti negizida Korporativ axborot yagona portalini yaratish, bunda xalqaro normalarni hisobga olgan holda quyidagilarni joylashtirish: moliya hisoboti va auditorlik xulosalari; aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidagi muhim faktlar to'g'risida ma'lumot; emissiyalar prospekti, joylashtiriladigan aksiyalar, aksiyadorlik kapitali miqdori va salohiyatli</p>	<p>Korporativ axborotning yagona portalini yaratish</p>	<p>2015 yil IV chorak</p>	<p>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi, Davlat raqobat qo'mitasi</p>
-----------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------	---------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

⁶ Muallif o'rganishlari natijaisda ishlab chiqilgan



	investorlar uchun boshqa ma'lumotlar; korporativ boshqaruv va qimmatli qog'ozlar bozori masalalari bo'yicha normativ-huquqiy bazadagi o'zgarishlar.			
3 6.	Xalqaro tajriba asosida aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya va ishlab chiqarish jarayonlarini, moddiy va moliyaviy resurslarni (ERP va boshqa dasturiy mahsulotlar) boshqarishning zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish.	Loyihalar ni amalga oshirish	grafiklar bo'yicha	Vazirlar Mahkamasi ATD, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar ini rivojlantirish vazirligi, vazirlik va idoralar
3 7.	Quyidagilarni nazarda tutgan holda davlat aktivlarini hisoblash tizimini takomillashtirish :	Vazirlar Mahkamasi qarori dasturiy mahsulot ishlab chiqish	2016 yil I chorak 2016yil III chorak	Davlat raqobat qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar ini rivojlantirish vazirligi, Qimmatli



<p>interaktiv o'zaro hamkorlik qilish imkonini yaratgan holda davlat aktivlarini boshqarishning elektron ma'lumotlar bazasini yaratish; xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarida davlat ulushining markazlashtirilgan hisobini yuritish; davlat aktivlarining yagona ro'yxatini investorlarga sotish uchun taklif qilinadigan obyektlar (ulushlar, aksiyalar, DUK) ko'rsatilgan holda shakllantirish va Internet tarmog'ida e'lon qilish.</p>			<p>qog'ozlar markaziy depozitariysi</p>
---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--	--	-----------------------------------------

Shunday qilib, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar uning ishlab chiqarish faoliyatini izchil isloh qilishga, ishlab chiqarish quvvatlarini



modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan bo'lib, ularning barchasi nafaqat kombinat rivojlanishi, shu bilan birga mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish uchun ham juda muhim hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, e'tirof etish joizki, jahon iqtisodiyotining hozirgi globallasuvi sharoitida voqelikni hisobga olgan holda yanada yuqori marralarga erishish uchun kombinatda samarali va tezkor tarzda boshqaruv qarorlari qabul qilish imkoniyatini yaratadigan boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish dolzarb masaladir⁷.

Tahlillar natijasi ko'rsatadiki, boshqaruv hisobi ko'pchilik korxonalarda olib borilmaydi yoki samarali tashkil qilinmagan. Bunga sabab, uni tashkil qilish borasida mamlakatimiz bo'yicha yagona uslubiy asosning ishlab chiqilmaganligi, milliy iqtisodiyotning alohida sohalarida uslubiy qo'llanmalarining yo'qligi, shuningdek, milliy iqtisodiyot tajribasiga uning endigina kirib kelayotganligi bilan bog'liq. Shu bilan birgalikda bozor munosabatlarining rivojlanishi va iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi sharoitida, ya'ni kuchli raqobat sharoitida mahalliy korxonalar o'zlarida amaliy jihatdan samarali bo'lgan boshqaruv hisobini tashkil etishga ehtiyoj sezmoqdalar⁸.

Sababi, korxonalarni boshqarishda foydalaniladigan tezkor tarzda iqtisodiy ma'lumotlarning eng muhim va katta qismini aynan mana shu boshqaruv hisobi shakllantirib berishi kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan, boshqaruv xisobining mohiyati, tarkibi va uning fundamental nazariy asoslari haqida chuqur iqtisodiy tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Bugungi kunda aksariyat rahbarlar (menejerlar) ko'pincha boshqaruv hisobining korxonada amaliyotidagi o'rnini anglamayapti, uni joriy etishning maqsad va vazifalarini to'la tushunmayapti. E'tirof etish kerakki, buning ustiga, xozirgi vaqtgacha boshqaruv hisobining izohi iqtisodiy adabiyotlarda aniq talqinga ega emas. Mutaxassislar orasida boshqaruv xisobining mohiyati, o'rnini va qo'llanilishi haqida, qolaversa, korxonani boshqarish tizimidagi o'rnini haqida yagona fikr yo'q.

Har bir korxonaning rahbari boshqaruv hisobi tizimini faqatgina o'z maqsadlari asosida o'ziga xos shaklda tashkil qiladi. Boshqaruv hisobini joriy etish ko'pincha butun korxonada faoliyatini qayta tashkil etish bilan kechadigan murakkab vazifa hisoblanadi⁹.

⁷ Pardayev M.K., Abdulkarimov I. T. , Isroilov B. I. , "Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili" . T. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 2023y

⁸ Ilyenkova S.D, i dr. Proizvodstvennyy menedjment. O`chebnik. YuNITI, Moskva, 2001. 16.Emerson. G. "Dvenadsat principov proizvoditelnosti truda" M., "Ekonomika", 2020 g.-176 s.

⁹ Peregudov A.V., Saidov M.X. i dr. O`pravleniye kachestvom i konkurentosposobnostyu produkcii. -T.: Moliya, 2021.-204 s.



Boshqaruv hisobini joriy etish bo'yicha duch kelinishi mumkin bo'lgan muammolarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish vazifasini bajaruvchi hodimlarni tanlash va ularning malakasini aniqlash borasidagi qiyinchiliklar;
- boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish bo'yicha quyi bo'g'in rahbarlari va mutaxassis-xodimlarda to'liq tasavvurning yo'qligi;
- boshqa ish uchastkalaridagi qoloqlik (e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik, o'zibo'larchilik kayfiyati va sh.k), shuningdek, buxgalteriya va soliq hisoblari qaydlari o'rtasida farqning mavjudligi, korxonada yagona tarkibiy tuzilmaning yo'qligi;
- korxonada jamoaning bir butunligini, o'zaro yordam munosabatlarini, o'zaro hurmatni va taqdim etilayotgan ma'lumot uchun mas'uliyat va javobgarlikni shakllantiruvchi ijobiy muhitning yo'qligi;
- boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritishning texnik ta'minoti bo'yicha qiyinchiliklarning mavjudligi, ya'ni kerakli kompyuter texnikasining yetishmasligi, samarali dasturiy ta'minotning yo'qligi va shu kabilar¹⁰.

Mana shu barcha muammolarni hal qilish bo'yicha javobgarlik menejerlar zimmasida bo'ladi. Menejerlar boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritishga qiziqishi va yuzaga kelgan tashkiliy, psixologik va texnik muammolarni hal qilishi kerak.

Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirish orqali baholash amaliyotini takomillashtirish jarayonlarida o'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki boshqaruv hisobi shakllantiradigan ma'lumotlarning ishonchligi ko'plab omillarga bog'liq: boshqaruv hisobi tizimini yaratish chog'ida korxonaning maqsadlari va ularni amalga oshirish strategiyalari aniqlik bilan inobatga olinganmi; moliyaviy javobgarlik markazlari to'g'ri tanlanganmi; biznes jarayonlarining texnologiyasi korxonaning vaziflariga va boshqaruv hisobining rejalashtirilgan tizimlariga muvofiq keladimi; xarajatlarni taqsimlash tizimi to'g'ri tanlanganmi¹¹; ma'lumotlarni yig'ish va budjetni shakllantirish bo'yicha javobgarlik tizimini shakllantirish va gorizont al oloqalar yo'lga qo'yilganmi. Bu jarayonlarni kuzatish zaruratdir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirish orqali baholash amaliyotini takomillashtirish jarayonlarida shuni ko'rishimiz mumkinki: Boshqaruv hisobi tizimini joriy etishda korxonada menejerlari oldida yuqorida ta'kidlangan vazifalardan tashqari yana bir qator masalalar yuzaga keladi: jamoani shakllantirish, munosib

¹⁰ Pardayev M.K., Abdukarimov I. T. , Isroilov B. I. , "Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili" .T. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 2023y.

¹¹ Nazarov A.Sh. "Mehnatni tashkil etish va normalash" (I qism). Toshkent. 1997 yil.



mutaxassislarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, qayta tayyorlash, ularning malakalarini uzluksiz tarzda oshirib borish zarurati, jamoaning yangiliklarga qarshilik qilishini yengish, kuchli gorizont al oqalarni o'rnatish va samarali tarzda tashkil qilingan, uzluksiz boshqarish tizimiga o'tish.

Ammo, boshqaruv hisobini joriy etishdan olinadigan natijalar ana shunday harakatlar va xarajatlarning barchasini oqlaydi. Chunki:

- boshqaruv hisobini tashkil qilish, uni yuritish va natijalarini hisobga olishga uslubiy jihatdan to'g'ri yondashish imkonini beradi. Buning natijasida korxonada boshqaruv hisobi siyosatining to'g'ri shakllanishiga erishiladi, bu esa pirovard natijada ana shu ma'lumotlarga asoslanadigan to'g'ri va samarali boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga mustahkam poydevor yaratadi;

- rahbarlarga ichki imkoniyatlarni hisoblash, raqobat tobora keskinlashib borayotgan bozorda tashqi muhit ta'sirini e'tiborga olish va buning uchun ularni tahlil qilish, hisobga olish va nazorat qilish imkoniyatlarini ochadi;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy ma'lumotlarning asoslanishini ta'minlash, istiqbol ko'rsatkichlarini to'g'ri shakllantirish, hosil bo'lgan bir necha variantlardan eng optimallarini tanlash imkoni kengayadi va pirovard natijada korxonada bevosita iqtisodiy samaraning o'sishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. –T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1999.
2. Akramov E.A. Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya. –T.: TIO, 2000.
3. Blank I.A. "Основы финансового менеджмента", Kiyev: Nika-Sentr, 1999.
4. Bekmurodov A.Sh., G'afurov O` V, Tuxliyev B.K. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonning samarali iqtisodiy siyosati. O'quv qo'llanma. T.: TDIO – 124 b.
5. Pardayev M.K., Abdukarimov I. T. , Isroilov B. I. , "Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili" . T. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 2023y.
6. Peregudov A.V., Saidov M.X. i dr. O`pravleniye kachestvom i konkurentosposobnostyu produkcii. -T.: Moliya, 2021.-204 s.
7. Zaynutdinov Sh.N., Murakayev I. "Основы менеджмента" T. "O`kituvchi"- 1996.-177.
8. Ilyenkova S.D, i dr. Proizvodstvennyy menedjment. O`chebnik. YuNITI, Moskva, 2001. 16.Emerson. G. "Dvenadsat principov proizvoditelnosti truda" M., "Ekonomika", 2020 g.-176 s.



9. Nazarov A.Sh. "Mehnatni tashkil etish va normalash" (I qism). Toshkent. 1997 yil.
10. Hasanov N., Najbitdinov S. Korxonada moliyaviy holatini baholash muammolari va ularni hal qilish. –T.: 2021.
11. G'ulomov S.S. "Korxonada iqtisodiyoti". – Toshkent 2022y.

